MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA MTT HAMKORLIGI

Eliboyeva Sayyora Shavkatjon qizi
Farg‘ona viloyati Rishton tumani
31- DMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish hamda ulardagi kreativ salohiyatni uyg‘otish prinsiplari tahlil qilingan. Bolalar shaxsida yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmasini shakllantirishda oilaviy muhit va maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘zaro integratsiyasi samaradorligi talqin etilgan.

Tayanch so‘zlar: maktabgacha davr, katta maktabgacha yosh, kreativ salohiyat,katta guruh, shaxs faolligi, hamkorlik modeli, tarbiya maskani, rivojlantiruvchi platforma.

Maktabgacha yosh - bu o‘zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Maktabgacha yosh davr - ijodiy salohiyatning boshlang‘ich shakllanishi va rivojlanishi uchun eng mazmunli bosqichlardan biridir. Bugungi kunda Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri “Ijodkor bolani” tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda insonning yaratuvchanlik imkoniyatlari uning aqliy yetuklik darajasini belgilovchi bosh mezon sifatida baholanmoqda. Bola shaxsida ijodiy uchqunlarni uyg‘otish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun maktabgacha bo‘lgan yosh eng assoy fundamenti hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda har bir tarbiyachining oldida turgan eng birinchi dastlabki vazifa — mustaqil va kreativ fikrlaydigan avlodni kamolga yetkazishdir. Ushbu jarayon qanchalik erta yo‘lga qo‘yilsa, uning ertangi mahsuli bolaning kelajagida va hayot yo‘lida shaffof namoyon bo‘ladiyorqin. Biroq, zamonaviy ta’lim amaliyotida ota-onalar va maktabgacha ta’lim maskanlari o‘rtasidagi pedagogik muloqot tizimini muvofiqlashtirish, shuningdek, bolaning ijodiy faolligini uy sharoitida davom ettirish masalalarida hamon qator tizimli kamchiliklar hamda uzilishlar ko‘zga tashlanmoqda. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (o‘qituvchilar, oila do‘stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko‘proq ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lgan "ideal qahramon" bo‘lsa, ayniqsa samarali bo‘ladi. Aslini olganda “Ijodkorlik” - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari. Ijodiy qobiliyat - bolaning yangi, original g‘oyalar hosil qilish, muammolarni noyob usullarda hal etish va tasavvur doirasini kengaytirish qobiliyatidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila - bolaning ijtimoiy-madaniy muhitining asosiy elementlari hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, oila bilan muvofiqlashtirilgan pedagogik ta’sir bolalarda ijodiy faollikni sezilarli darajada oshiradi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini ilmiy asosda tashkil etish hamda rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini keng tatbiq etish dolzarb masaladir.

Ko‘pgina adabiyotlarda ta’kidlanishicha, qobiliyatlar shu jumladan, ijodkorlik bolaning shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlari masalalari bilan olimlar B.N. Nikitin, O.M. Dyachenko, N.E. Veraksa va boshqalar shug’ullanganlar. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar bilan bo‘sh vaqtlarida o‘ynash mumkin bo‘lgan maxsus

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o‘yinlar mavjud. Olimlar tomonidan ishlab chiqilgan qiziqarli o‘quv o‘yinlar buning yorqin isboti hisoblanadi. Bola fantaziyasini uning ijodiy fikrlashini rivojlantirishning yana bir yorqin manbai ertakdir. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun pedagoglar foydalanishi mumkin bo‘lgan ko‘plab ertak usullari mavjud. Ular orasida: ertakni «buzib ko`rsatish», teskari yo`nalishda ertak o`ylab topish, ertakning davomini o`ylab topish, ertakning oxirini o`zgartirish. Bundan tashqari taniqli pedagog olim Yan Amos Komenskiy fikricha o‘yin – bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi, - deb ta’kidlagan. NATIJA Tajribalarda ko‘rsatilishicha, bolalarning aynan ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta’lim yosh davriga to‘g‘ri kelishi o‘z isbotlangan. Hozirgi zamon standartlarini amaliyotda tadbiq etish boladan nafaqat yuqori va doimiy izlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Bolaning kreativligi o‘z tajribalari va ixtirolarini qayta ko‘rib chiqishi va yanada yaxshilash, natijani anglash hamda ijodiy foydalana bilish, yangiliklar yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faolligini oshirish va ularning yashirin intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammosi ko‘plab mahalliy hamda xorijiy olimlarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Xususan, pedagogika sohasi vakillari mazkur yosh davridagi sermahsul faoliyat turlarini shunchaki vaqtichog‘lik emas, balki bolaning mantiqiy tafakkuri va mustaqil dunyoqarashi shakllanadigan tizimli aqliy jarayon sifatida baholaydilar. Ushbu yosh guruhida ijodiy erkinlik va kreativ tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv ertak-terapiya hamda muammoli vaziyatli o‘yin texnologiyalaridan unumli foydalanish kutilgan yuqori samarani beradi.

Olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boladagi kreativlik to‘satdan paydo bo‘lmaydi, balki u qulay ijtimoiy muhit ta’sirida yuzaga chiqadi]. Bolalar ijodkorligini harakatga keltiruvchi bosh kuch — bu kattalarga taqlid qilishdir, shuning uchun ham ota-ona va pedagog bolaga har tomonlama namuna bo‘la olishi shart. Kuzatishlarimizga ko‘ra, oilada o‘zaro ishonch va demokratik muhitning qaror topishi, bolaning erkin fikrlashiga sharoit yaratilishi hamda uning kichik yutuqlari ham e’tibordan chetda qolmasligi uning faolligini keskin oshiradi. Pedagog va ota-onalarning hamjihatligini ta’minlash maqsadida zamonaviy muloqot guruhlari, qo‘shma ijodiy loyihalar va uy sharoitida bajariladigan interaktiv topshiriqlar tizimi tavsiya etiladi.

| Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi davr bolaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun eng erkin va ta’sirchan bosqichdir. MTTlar qoshida tashkil etiladigan maxsus rivojlantiruvchi to‘garaklar va markazlar interaktiv o‘yinlar orqali bolani ijodga yo‘naltiruvchi eng maqbul maskan hisoblanadi. Bolaning intellektual va ma’naviy yuksalishida yuqori natijaga erishish ta’lim muassasasi hamda oilaning o‘zaro mustahkam hamkorlik zanjirini yaratishni talab etadi.

Foydalanigan adabiyotlar ro’yxati

1. Asqarov Anvarjon Rahimjon o’g’li. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O’YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. Uzbek Scholar Journal, 5, 207–209.
2. Rahimjon o‘g’li, A. A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(2), 116-119.
3. Rajabova M.T. MAKTABGACHA TA`LIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Oriental Journal of Education SJIF for 2022:6. 76-81. https://www.supportscience.uz/index.php/oje

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4. Norovna M.S, Mirzayeva D.A. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’limiy muhitni tashkil etishning o‘ziga xosligi. "Science and Education" Scientific Journal. Volume
5. 5 Issue 2. 559-564. 5. Sh.A. Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T:. 2013 y.- 288 bet.
6. N.M. Qayumova “Maktabgacha pedagogika”, “TDPU” nashriyoti T:. 2013 y184 bet.
7. Sultonova N.A., O`zbekistonda Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishning kelajak istiqbollari. International Scientific and Practical Conference, 2023/11/30., 4-7. https://www.conferenceseries.info/index.php/education
8. Sultonova Nurkhon Anvarovna, Kadyrova Nasibakhon., Impact of the Internet in the Conditions of Global Processes on Spirituality and Health of Youth., INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION., 2022/12/29., 1/6. p165-168
9. Sultonova N Anvarovna Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children., International Journal of Inclusive And Sustainable Education 1, 2022., p169-173
10. Sultonova Nurkhon Anvarovna, Issues of Education during the Oriental Renaissance., International journal of inclusive and sustainable education., 2022, 1/5 p301-305

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.